

## Sadaqa berishning fazilati



13:01 / 31.12.2018 26072

### ***Ey, farzand!***

Faqir va muhtojlarga yordam bergan, taomlantirgan kishini Alloh jannat ne'matlari bilan siylaydi. Ming gunohini o'chirib, ming savob yozadi. Muhtojlarga har jihatdan madad-yordam berish zarur. Oila a'zolariga, qarindosh-urug'larga, qo'ni-qo'shnilar, do'stu birodarlarga xasislik qilmaslik kerak. Bularga sarflangan narsa sadaqa o'rniga o'tadi.

Abu Umoma roziyallohu anhuning Rasululloh sollallohu alayhi vasallamdan rivoyat qilgan hadislarida shunday deyiladi:

«Bir kishining oila a'zolariga, qarindosh-urug'lariga, qo'ni-qo'shnilariga ko'rsatadigan ikromi ikromlarning eng go'zalidir. Bularga nisbatan xasislik qilmaslik kerak».

## ***Ey, farzand!***

To'rt xislat kishining yaxshilik egasi ekanini va yaxshiligini bildiradi. Bu haqda Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallam shunday deydilar:

1. Mo'l-ko'l (boy va kambag'al) zamonlarda zakot va taqchil paytlarda sadaqa bermoq.
2. G'azablangan holda jahlini yutmoq.
3. Bir kishida ko'rgan kamchilikni atrofga yoymasdan berkitmoq.
4. Oila a'zolariga, qarindosh-urug'lariga, qo'ni-qo'shnilariga, atrofida qilarga nisbatan jo'mard, saxovatli muomalada bo'lmoq.

Shunday xislatlarga ega bo'lgan zot yaxshi insondir. Bu xislatlar kishini yaxshi inson sifatida namoyon etadi.

Chanqagan kishiga suv ichirmoq ikromlarning eng savoblisidir. Bu haqda Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallam shunday deydilar:

«Chanqagan bir kishiga suv ikrom etganning amal daftariga yetmish yillik ibodat savobi yoziladi.

Bu ikromni suv tanqis joyda qilganga hazrati Ismoil alayhissalom (bunga Payg'ambarimizning sollallohu alayhi vasallam ahli bayti ham doxil) avlodlaridan bir kishini kofir qo'lidan qutqarganning savobi beriladi».

## ***Ey, farzand!***

Xayr va hasanotni mo'l qilmoq, saxiy bo'lmoq lozim. Alloh xayr qilguvchi, saxiy qullarini sevadi.

Rasululloh sollallohu alayhi vasallam marhamat etadilar:

«Har doim xayr qilib, xayrli ishlar bilan mashg'ul va yomon ishlardan uzoq bo'lgan qulini Alloh sevadi».

Hazrati Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallam marhamat etadilar:

«Bir dona xurmo bilan bo'lsa ham faqirga ikrom etganga o'sha xurmo donasi besh narsani mujdalaydi:

1. Men bir dona edim, meni ko'paytirding.

2. Kichik narsa edim, ulg'aytirding.
3. Men dushman edim, sen do'st aylading.
4. Men yeyilib yo'q qilinardim, meni abadiylashtirding.
5. Hozirgacha sen meni saqlashga harakat etarding, bundan buyon men seni saqlanishingni tilayman».

**Ey, farzand!**

O'rniga xarjlangan mol kamaymaydi. Shubhasiz ortadi. Abdurrahmon ibn Avf roziyallohu anhu Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallamdan shunday rivoyat qilgan:

«Uch xususda hech shubha qilmasdan qasamyod etaman:

1. Sadaqa berish va xayrga sarf etish bilan mol kamaymaydi. Balki ortadi, ko'payadi.
2. Bir kishiga yomonlik qilinsa, yomonlik ko'rgan uni kechirsa, Alloh qiyomat kunida o'sha kechirgan qulini mahshar xalqi havas qiladigan bir kishiga aylantiradi.
3. Tilanmoqqa odatlangan faqirlikdan qutilmaydi.

***Ey, farzand!***

Abu Hurayra roziyallohu anhu aytgan rivoyatga ko'ra, Paygambarimiz sollallohu alayhi vasallam shunday deydilar:

«Alloh rizosi uchun qilingan bir yaxshilikka ming savob bilan javob beriladi».

Abu Hurayra roziyallohu anhu deydilarki:

«Buni eshitgan bir zot mendan shu xabar to'g'rimi, yo'qmi deb so'radi. Men unga shunday javob berdim: Men Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallamdan eshitdim. Shunday dedilar:

«Kim Alloh uchun qarz bersa, Alloh unga ikki ming savob ehson etadi. Birovga qarz beruvchi yaxshilik bilan bersin, hamda yaxshilik bilan olsin».

Chunki yana Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallam marhamat etadilar:

«Sizlar bir-biringiz bilan qarz oldi-berdi qilgan paytingizda bu ishni yaxshilik bilan ado etingiz. Agar boy bo'lib, faqirda bergan qarzingizni kechib yuborsangiz, mahshargohda arshning soyasida bo'lasiz. Jannat ham sizni oshiq bo'lib kutadi!»

**"Ey, farzand!" kitobidan**